



TILSHUNOSLIKDA ANTROPONIMLAR MUAMMOSI.

*Farg'onan davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport fakulteti,
Umumkasbiyfanlarni o'qitish metodikasi Kafedrasi assistent-o'qituvchisi*

Ergashov Ulug'bek Akbarali o'g'li

Elektron pochta: Uergashefff@gmail.com

Annotatsiya: Ma'lumki, antroponom (yunoncha: antropos-antropos + onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus va boshqalar). O'zbek tili antroponimiyasining o'r ganilish tarixi shuni ko'rsatadiki, u boshqa turkiy tillar orasida kamroq tadqiq qilingan. Qozoq, qoraqalpoq, uyg'ur, qirg'iz va boshqa turkiy tillarga nisbatan o'zbek tilshunosligida antroponimiya masalalari bir oz keyinroq yoritila boshlagan. Bu holat antroponimiya muammolarini tadqiq qilishning ham miqdoriy, ham sifat jihatlarida o'z aksini topgan.

Abstract: It is known that anthroponym (Greek: anthropos-anthropos + onoma-proper noun) is a proper noun of a person (name, surname, nickname, pseudonym, etc.). The history of the study of anthroponymy of the Uzbek language shows that it has been studied less than other Turkic languages. In comparison with Kazakh, Karakalpak, Uyghur, Kyrgyz and other Turkic languages, issues of anthroponymy began to be covered in Uzbek linguistics a little later. This situation is reflected in both the quantitative and qualitative aspects of the study of anthroponymy problems.

Аннотация: Известно, что антропоним (греч. антропос-антропос + онома-имя собственное) – это личное существительное (имя, фамилия, прозвище, прозвище и т. д.). История изучения антропонимии узбекского языка показывает, что она менее изучена среди других тюркских языков. Применительно к казахскому, каракалпакскому, уйгурскому, киргизскому и другим тюркским языкам вопросы антропонимии в узбекском языкознании



стали освещаться несколько позже. Данная ситуация отражается как на количественном, так и на качественном аспектах исследования проблем антропонимии.

Kalit so‘zlar: antroponim, kishi nomlari, laqablar etimologiyasi, etnografiya, til-lug‘at tizimi.

Keywords: anthroponym, personal names, etymology of nicknames, ethnography, language-dictionary system.

Ключевые слова: антроним, личные имена, этимология прозвищ, этнография, языковая система.

Tilshunosligimizning keyingi taraqqiyotida antroponimlarni ilmiy jihatdan o‘rganish qator ilmiy ishlarning obyekti bo‘lib kelmoqda. Jumladan, E.T.Smirnov, keyinchalik N.S.Likoshin va rus sayyohi va etimologi V.F.Oshanin, turkiyshunos olim A.Samoylovichlar o‘zbekcha ismlarni to‘plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shuningdek, N.Ostroumov, A.Samoylovich, S.Oldenburg, V.YA.Nalivkin, M.Nalivkina kabi tilshunos olimlar ishlarida ham o‘zbekcha ismlar va laqablar etimologiyasi, etnografiyasiga oid ayrim masalalar haqida fikrlar bayon qilingan, ularning urf-odati masalalari ham diqqat-markazida bo‘lgan. S.Ibrohimov, M.Rahmonlar esa o‘zbekcha ismlar va familiyalarning imlosiga doir kuzatishlar olib borsa, N.S.Malitskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlarini o‘rgangan.

O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab o‘zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganishga qiziqish boshlandi. Shu yillarda D.Abdurahmonov, O‘.Nosirov, F.Abdullayev, M.Shamsiyeva, A.Ishayev, X.Doniyorov kabi olimlarning o‘zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari nashr qilindi.



E.A.Begmatov o‘zbek antroponimikasiga ulkan hissa qo’shgan nomshunos olimdir. U antroponimlarning lingvistik, ekstralolingvistik xususiyatlari, ism, laqab, taxallus, familiya, ota ismlarning leksikasi, strukturasi, grammatik xususiyatlari bo‘yicha qator salmoqli maqolalar e’lon qildi va o‘zbek antroponimiyasi bo‘yicha ko‘plab ma’lumotlar yig‘di. Olim 1965-yilda “O‘zbek tili antroponimikasi” mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. Uning ismshunoslikka oid “Nomlar va odamlar” (1966), “Kishi nomlari imlosi” (1970), “O‘zbek ismlari imlosi” (1972), “Литературные имена и фамилии узбекских авторов в русской транскрипции” (1981), “O‘zbek ismlari” (1992, 2000, 2007), “Ism chiroyi” (1994) kabi asarlari o‘zbek tilshunoslik ilmiga qo’shilgan salmoqli hissadir.

Zamonaviy o‘zbek antroponimiyasi tadqiqi o‘tgan asrning 20-yillari boshiga borib taqaladi. Bir asr davomida o‘zbek antroponimiyasining turli masalalari bo‘yicha o‘nga yaqin dissertatsiya yozilgan, jumladan: A.Ishayevning “Mang‘it shevasida so‘zlarning torayish formalari” (1962), E.Begmatovning “O‘zbek tili antroponimikasi” (1965), F.Abdullayevning “Xorazm shevalari” (1967), X.Doniyorovning “Qipchoq dialektlarining leksikasi” (1979), G‘.Sattorovning “Otoyi emas, Atoyi” (1984), Sh.Yoqubovning “Navoiy asarlari onomastikasi” (1994), I.A.Jurayevning “Номинативные функции антропонимов (на материале английского, узбекского и русского языков)” (2012), N.A.Husanovning “XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari” (2000), I.Xudoynazarovning “Antroponimlarning til-lug‘at tizimi va ularning semantik uslubiy xususiyatlari: Ergash Jumanbulbul dostonlari asosida” (1998), Yu.N.Xojalepesovaning “Прозвища в системе Каракалпакской антропоними” (2014), R.Yu.Xudoyberganovning “O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi” (2009), D.Andaniyozovaning “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi” (2017), I.O‘.Darvishevning “Janubi-g‘arbiy Namangan shevalari fonetik-fonologik



xususiyatlarining areal tadqiqi” (2018) va boshqa qator tadqiqot ishlari hamda maqolalarni sanab o‘tish mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu muammo bo‘yicha barcha adabiyotlar ko‘p qirraliligi, ham mazmunan, ham muammolarni yoritish xususiyati va darajasi bo‘yicha xilma-xildir. O‘zbek antroponimiyasiga oid adabiyotlarda tadqiqot nazariyasi va amaliyotining turli masalalari, jumladan, sof amaliy xarakterga ega bo‘lgan – ota-onalarga ism tanlash bo‘yicha tavsiya beradigan alohida maqola va to‘plamlar keltirilgan. Shuning uchun mavjud adabiyotlarda antroponimiya muammolarining yoritilish darajasini tahlil qilish maqsadida muayyan ruknlar va mavzular bo‘yicha tadqiqotlarni tizimli tavsiflash usulini tanladik.

F.Abdullayevning “Xorazm shevalari” nomli monografiyasida o‘zbek ismlarining Xorazm lajasidagi lisoniy xususiyatlari haqida mulohazalar berilgan bo‘lib, muallif kishi ismlarining qisqarishiga oid materiallarni ham beradi. “Ba’zi bir kishi otlari va ularning qisqargan formalari” ro‘yxati 163 ta ismni o‘z ichiga oladi.

Tilshunos A.Ishayev esa o‘zining “Mang‘it shevasida so‘zlarning torayish formalari” haqidagi tadqiqotlarida ismlarning qisqarishi o‘rnida “torayish formalari” atamasini qo‘llaydi.

X.Doniyorov ham “Qipchoq dialektlarining leksikasi” tadqiqida qayd qilingan ism shakllarini sheva antroponimiyasiga oid nomlar sifatida beradi, ularning ism sifatida berilish sabablarini izohlaydi.

Tilshunos olim E.Begmatov “O‘zbek antroponimikasi” nomli tadqiqotida shaxslarning ismlari dialektal shakllarda ham uchrab turishini qayd etadi. Olim kishi ismlarining qisqargan variantlarini antroponimianing o‘ziga xos xususiyatlaridan biri deb biladi.

Yana bir tilshunos Sh.Yoqubov ham “Navoiy asarlari onomastikasi” haqidagi tadqiqot ishida o‘zbek tilidagi tarixiy ismlarga batafsил to‘xtalib o‘tadi.



Mazkur tilshunosning 1970-1990-yillardagi bir qator tadqiqot ishlari o‘zbek ismlari imlosi bilan bog‘liq bo‘lib, “Kishi nomlari imlosi” [1] ishida ismlarning unli va undosh tovushlar bilan bog‘liq imloviy nuqsonlar, antroponimlarning lahjaviy va qisqarish xususiyatlariga doir mulohazalar berilgan. Muallif o‘zbek ismlarining ruscha yozilishi masalasini ham o‘rtaga tashlaydi [2].

O‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab tarixiy-etnografik xarakterdagi bir qator asarlar yozilgan va nashr etilgan bo‘lib, ularda bolalarga ism qo‘yish usullari, turlari va omillari yoritilgan.

O‘zbek antroponimiyasining etnografik jihatlari tarixchi-etnograflar, shuningdek, tilshunoslар va keng doiradagi mutaxassislarning ishlarida o‘z aksini topgan. Bu haqda M.S.Andreyev 1924-yilda “Match (Zarafshonning yuqori qismi) dagi turli qishloqlar aholisining laqablari” maqolasida yozgan; A.A.Semyonov “O‘rta asr Buxorosida mansab va unvonlar hamda ularning egalari majburiyatları haqidagi Buxoro risolasi”, M.R.Rahimov “Zarafshon vodiysidagi antroponimlar” haqidagi kitoblarida to‘xtalib o‘tishgan.

Har bir xalqning o‘ziga xos atoqli otlar tizimi mavjud bo‘lib, u rang-baranglik bilan ajralib turadi, milliy an’analarni yuqori darajada aks ettiradi va ismlarning katta tanloviga imkon beradi. Umuman olganda, antroponimiya muammolarini tadqiq etish ma’lum jihatdan zamonaviy tilshunoslik darajasiga yaqin bo‘lib, uning masalalarini zamonaviy lingvomadaniyatshunoslilik va etnolingvistika nuqtayi nazaridan tavsiflash zarur. Darhaqiqat, har bir xalq obyektiv voqelikni aks ettirishning shakllangan lingvomadaniy va etnolingvistik qonuniyatlariga muvofiq, antroponimlarning o‘z fondini (to‘plamini) shakllantiradi, bu ism qo‘yishning o‘ziga xos an’analarda ifodalananadi va ushbu xalqning olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasini aks ettiradi.

M.Mamajonovning “Antroponimlar diskurs relevanti sifatida” nomli tadqiqot ishida antroponimlarning uslubiy-funksional hamda motivatsion xususiyatlari, lingvo-etnomadaniy asoslari, tasnifi o‘rganilgan. Muallif



antroponimlar diskurs relevanti sifatida birlashtirish va ajratish(farqlash)lik funksiyasini ham bajarishini ta'kidlar ekan, “biror notanish kishi sizga ismingiz (familiya yoki otangizning ismi) orqali murojaat qilsa, birdan o'rtadagi begonalik ma'lum ma'noda ortga chekinadi, ya'ni siz murojaat qiluvchiga xuddi eski tanishga qaragandek yuzlanasiz” [3, 157], deydi.

Antroponom (ism)larning bu kabi birlashtiruvchilik xususiyatlari haqida Tursunoy Sodiqovaning “Murosa ilmi” hamda Siddiq Mo'minning “Muloqot mezoni” risolalarida ham asosli fikrlar bildirilgan.

Jahonda har bir o'lka, elat va hatto har bir mintaqaning tili, madaniy va ijtimoiy tuzumi bilan uyg'unlashgan holda o'ziga xos ism qo'yish odati bor. Shuning uchun ham, har bir millatning tilidagi otlar o'sha millat turmush sharoiti, saviyasi, qaysi bir etnik guruhga mansubligi, shuningdek, ularning rasm-rusum va an'analarini ham aks ettiradi. Kishi nomi muayyan zamon va makonda o'z egasining tutgan o'rnnini ham belgilaydi. Masalan, buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur Tarag'ay Ko'ragoni bobokalonimizga Sohibqiron va Ko'ragon nomlari berilgan. Sohibqiron nomi ikki sharofatli sayyora – Zuhro va Mushtariy samoviy doirasida Tur (jaddiy) burjida o'zaro yaqinlashgan vaqtida tug'ilganligi uchun qo'yilgan. “Amir Temur Saroymulkxonimni o'z nikohiga kiritgach, mashhur “Ko'ragon” nomini olishga musharraf bo'ladi” deyiladi. Ko'ragon so'zi mo'g'ul tilidan o'zbek tiliga o'girilsa, “kuyov” degan ma'noni anglatadi [4].

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida atoqli otlarning tadqiqi uzluksiz jarayondir. Hozirgi kunga qadar zamonaviy o'zbek antroponimiysi muammolariga monografik tadqiqotlar, jumladan, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bag'ishlangan bo'lsa-da, o'zbek antroponimiysi o'zbek tilshunosligining hali ham yetarli darajada o'rganilmagan sohasi bo'lib qolmoqda. O'zbek antroponimiyasida doimiy izlanishlarni talab qiladigan ko'plab hal etilmagan muammolar mavjud. Aynan shu masalalar antroponimiyanı qiyosiy



o‘rganish jihatiga ham taalluqlidir. Tilshunoslikning bu muhim muammosini tadqiq etish amalda alohida ishlar bilan chegaralanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Киши номлари имлоси. – Тошкент: Фан, 1970.
2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари имлоси (Русча ёзилиш масалалари). – Тошкент, 1972.
3. Мамажонов М. Антропонимлар дискурс релевантни сифатида: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Фаргона, 2020. – 157 б.
4. Яхшибоев Я. Яна кўрагон хақида // Туркистон, 1992, 5 февраль.
5. Содиқова Т. Муроса илми. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги матбаа ижодий уйи, 2016;
6. Сиддиқ Мўмин. Мулоқот мезони. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
7. Ulug‘bek, E. (2023). Dastxat matnlarida murojaat shakllarining qo‘llanishi. *European journal of interdisciplinary research and development*, 15, 453-459.
8. Ergashev, U. B. (2023). Sportchilar faoliyati davomida xorijiy tillarning o‘rnini va ahamiyati. *Educational research in universal sciences*, 2(11 SPECIAL), 387-390.
9. Nurmatova, M., Ergashov, U. B., & Ergasheva, S. (2023). Pragmalingvistikaning shakllanishi va o‘rganilishi. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 23-24.
10. Ergashov, U., & Rahimov, Z. (2023). Signature and its relationship to speech styles. In *International conference on business management and humanities* (Vol. 1, No. 1, pp. 68-69).
11. Mirzayeva, D., & Ergashov, U. B. (2023). Dastxat matn sifatida. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(5 Part 2), 60-62.



- 12.** Ergashov, U., & Sulaymonov, M. (2023). Sportchilar dasxatlarining funksional ahamiyati va xoslanishining bugungi kundagi o'rni. *Gospodarka i Innowacie.*, 32, 1-4.
- 13.** Эргашов, У. (2024). ВЛИЯНИЕ ЯЗЫКА НА КОГНИТИВНЫЕ И ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Research and implementation*, 2(6), 146-150.
- 14.** Ergashov, U. B. (2024). SPORTCHILAR DASXATINING PSIXOLINGVISTIK HUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 229-232.
- 15.** Ergashov, U. (2024). Sportchilar dastxatlarining psixolingistik tadqiqi (o 'zbek va ingliz tili misollarida). *Research and Implementation*, 197-201.
16. Эрназаров, Г. Н. (2023). Сложные Формы Заявлений. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(10), 114-118.